



UDK 327:305-055.2

**Suhrob BO'RONOV,**

*Dotsent, siyosiy fanlar doktori, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

**Nozima ERGASHEVA,**

*Talaba, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: nozimaergasheva866@gamil.com*

*TDSHU professori, s.f.d. S.Ubaydullayeva taqrizi asosida*

## THE PLACE AND ROLE OF FEMALE DIPLOMATS IN INTERNATIONAL RELATIONS

Annotation

This article analyzes the place and role of women diplomats in the system of modern international relations. Specifically, it highlights the issue of gender balance in diplomacy, the participation of women in foreign policy decision-making processes. The contribution of women diplomats to peacemaking, conducting negotiations, and developing international cooperation is also examined through practical examples. Furthermore, the article addresses gender stereotypes, institutional barriers, and the growing trend of women's representation in modern diplomacy.

**Key words:** "Women in Diplomacy" Index, women in the UN structure, Annalena Baerbock, Madeleine Albright, Amina Mohammed, women's diplomacy, genes and culture.

## МЕСТО И РОЛЬ ЖЕНЩИН-ДИПЛОМАТОВ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье анализируется место и роль женщин-дипломатов в системе современных международных отношений. В частности, освещается вопрос гендерного баланса в дипломатии, участие женщин в процессе принятия внешнеполитических решений. Также на практических примерах рассматривается вклад женщин-дипломатов в установление мира, ведение переговоров и развитие международного сотрудничества. В данной статье также рассматриваются гендерные стереотипы, институциональные барьеры и тенденции увеличения представительства женщин в современной дипломатии.

**Ключевые слова:** Индекс "Женщины в дипломатии", женщины в структуре ООН, Анналена Бэрбок, Маделин Олбрайт, Амина Мохаммед, женская дипломатия, гены и культура.

## XALQARO MUNOSABATLARDI AYOL DIPLOMATLARNING O'RNI VA ROLI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ayol diplomatlarning o'rni va roli tahlil qilinadi. Xususan, diplomatiyada gender muvozanati masalasi, ayollarning tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki yoritiladi. Shuningdek, ayol diplomatlarning tinchlik o'rnatish, muzokaralar olib borish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi hissasi amaliy misollarda ko'rib chiqiladi. Mazkur maqolada gender stereotiplari, institutsional to'siqlar va zamonaviy diplomatiyada ayollar vakilligining ortib borish tendensiyalari ham keltirib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** "Diplomatiyada ayollar" indeksi, BMT tuzilmasida ayollar, Annalena Baerbock, Madelin Olbrayt, Amina Muhammad, ayollar diplomatiyasi, genlar va madaniyat.

**Kirish.** Insoniyat taraqqiyoti davomida davlatlar o'rtasidagi munosabatlar doimo manfaatlar va xavfsizlik masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Mazkur munosabatlarni tartibga solishda diplomatiya muhim siyosiy vosita sifatida shakllangan bo'lib, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining murakkablashuvi esa diplomatiyaning nafaqat shakli, balki undagi ishtirokchilar tarkibining ham o'zgarishiga olib keldi. Dastlab diplomatik faoliyat asosan davlat rahbarlari va tor doiradagi siyosiy elita vakillari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ushbu soha tobora institutsionallashtirib bordi. Xalqaro tashkilotlar faoliyatining kengayishi, inson huquqlari va gender tengligi kabi tamoyillarning xalqaro siyosatda muhim o'rin egallashi diplomatik xizmat tizimida yangi yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Natijada uzoq yillar davomida asosan erkaklar ustunlik qilgan diplomatik faoliyatda ayollarning ham ishtiroki tobora ortib bordi.


**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Xalqaro munosabatlarda gender diplomatiyasi va ayollarning diplomatik tizimdagi o'rni masalasi keng o'rganilayotgan

muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Jumladan, amerikalik olim Mary Gergening "Gender munosabatlarida pozitsiyalashuv: Konstruktivizmdan konstruksionizmga" nomli maqolasida gender identitetining ijtimoiy konstruktivizm asosida shakllanishi yoritiladi. Ushbu asarda gender rollari barqaror emasligi, balki ijtimoiy diskurs va madaniy kontekstga bog'liq ravishda o'zgarib borishi asoslab beriladi. Rossiya ilmiy markazi tomonidan tayyorlangan "Diplomatiyada ayollar" nomli kollektiv monografiyada ayollarning diplomatik tizimdagi o'rni tarixiy va institutsional jihatdan yoritilgan. O'zbekiston olimlaridan Vasila Karimovaning "Gender sotsializatsiya va gender tenglik muammolarini tadqiq etishning metodologik asoslari" maqolasida gender tenglik muammosining metodologik asoslari ishlab chiqiladi.

Mazkur maqolada tadqiqot metodlari sifatida tizimli tahlil, qiyosiy infografik jadval va empirik tahlil turlaridan foydalanildi.

**Natijalar.** Zamonaviy diplomatiyada ayollar nafaqat yordamchi yoki vakillik funksiyalarini bajaruvchi shaxs sifatida, balki muhim siyosiy qarorlar qabul qilish, xalqaro

muzokaralar olib borish, nizolarni hal etish va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etuvchi muhim aktorlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Anvar Gargash Diplomatik Akademiyasi tomonidan e'lon qilingan eng so'nggi "Diplomatiyada ayollar" indeksiga ko'ra, 2025-1-rasm [2]



Mazkur keltirilgan rasmda gender diplomatiyasining rivojlanish to'liqlini har bir hududda turlicha ekanini ko'rishimiz mumkin. Lekin genderni rivojlantirish ko'lamini davlatlardagi mavjud ijtimoiy qadriyatlar va mintaqalardagi vaziyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Bu masala bo'yicha qarashlar G'arbda shakllanganligi uchun bu ko'rsatkichlarda Yevropa oldinda. Biroq bu jarayon asta sekinlik bilan globallashtirish va butun boshli xalqaro munosabatlar tizimini qamrab olayotganligini ham ko'rish mumkin [2]. Eng taniqli yevropalik nomlar orasida Federika Mogerini (2014-yildan 2019-yilgacha Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha oliy vakili) va Skandinaviya mamlakatlaridagi ko'plab ayol tashqi ishlar vazirlari bor. Ular nafaqat muhim tashqi siyosat funksiyalarini bajaradilar, balki o'rnatib, diplomatiyaning erkaklar ustunlik qiladigan kasb sifatidagi an'anaviy tushunchalariga qarshi chiqadilar [3].

Shuningdek, Tashqi ishlar vazirlari, BMTdagi doimiy vakillar va strategik muhim mintaqalardagi elchilar lavozimlariga ayollarni tayinlash endi istisno emas, balki yangi standartga aylanib bormoqda. 2025-yilda BMTning asosiy organlaridan birida muhim voqea yuz bergan, jumladan, Germaniyaning sobiq tashqi ishlar vaziri Annalena Barbok BMT Bosh Assambleyasi prezidenti etib saylandi. Bu ayollarning global diplomatik jarayonlardagi markaziy o'rini tasdiqladi. 1986-yilda Filippinda Korason Akino, 1990-yilda Bangladeshda Xalida Ziy va Shayx Hasina, 1990-yilda Myanmada Aun San Su Chi, 1998-yilda Indoneziyada Megavati Sukarnoputri hamda boshqa ko'plab ayol diplomat va siyosatchilar diktatorlik tuzumlariga qarshi demokratik harakatlarga muvaffaqiyatli rahbarlik qilgan yoki ayollarning rahbarlik lavozimlariga intilishiga turtki bergan [4].

G'arb siyosati va diplomatiyasida muvaffaqiyat qozongan yana bir taniqli ayol arboblardan biri – Madelin Olbrayt hisoblanadi. U AQSh tashqi siyosati sohasidagi eng nufuzli va ta'sirchan shaxslardan biri, kuchli siyosiy yetakchi hamda feminist sifatida e'tirof etiladi. 1997-yilda u AQSh tarixida ilk bor ayol Davlat kotibi lavozimini egallab, mamlakat hukumati tarixidagi eng yuqori martabaga erishgan ayollardan biriga aylandi [5]. Hillari Rodxem Klinton Amerika tashqi siyosatidagi eng ko'zga ko'ringan ayollardan biri. Ma'lumoti bo'yicha yurist, birinchi xonim va Nyu-Yorkdan senator bo'lgan. U 2016-yilda ikkala partiya tomonidan prezidentlikka

yilda dunyo bo'ylab ayollar elchilik lavozimlarining atigi 22,5 foizini egallagan. Bu o'tgan yilga nisbatan taxminan 1,5 foiz punktga o'sish degani, ya'ni ijobiy tendensiya mavjud, lekin har to'rt elchidan faqat bittasi ayol ekanini ham anglatadi [1].

nomzod sifatida ko'rsatilgan birinchi ayol bo'ldi [4]. Bundan tashqari, BMT tuzilmasida BMT Bosh kotibining o'rinbosari Amina Muhammad ham muhim rol o'ynaydi. Amina Muhammad 1961-yilda Buyuk Britaniyaning Liverpool shahrida tug'ilgan va Nigeriyada o'sgan. BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida Amina Muhammad shunday degan edi: "Ayollar stol atrofida bo'lishi, ovozlari eshitilishi va hissasi qadrlanishi uchun bor kuchimizni sarflashimiz kerak" [6]. Benazir Bxutto ko'pincha bosh vazir lavozimini muvaffaqiyatli egallagan eng yorqin ayol siyosiy liderlardan biri sifatida tilga olinadi [7]. Uning siyosiy faoliyati ayollarning nafaqat siyosatda ishtirok etishi, balki davlat boshqaruvida yuqori lavozimlarni muvaffaqiyatli egallashi mumkinligini ko'rsatib berdi [5].

Indira Gandi faoliyati ham ayollarning xalqaro siyosat va tinchlik jarayonlaridagi o'rini tushunishda muhim misol hisoblanadi. U Hindiston Bosh vaziri sifatida 1971-yil Hindiston-Pokiston urushi davrida juda murakkab geosiyosiy vaziyatda qaror qabul qilgan. U 1972-yilda Pokiston bilan Shimla kelishuvini imzolashda asosiy rol o'ynagan. Bu kelishuv urushdan keyingi munosabatlarni normallashtirish va Janubiy Osiyoda nisbatan barqarorlikni tiklashga qaratilgan edi [8]. Indira Gandining faoliyati shuni ko'rsatadiki, ayol yetakchi faqat ichki siyosatda emas, balki juda murakkab xalqaro mojarolarda ham qat'iy qarorlar orqali tinchlik va yangi siyosiy tartib shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sanae Takaichining Yaponiya tarixidagi ilk ayol bosh vaziri sifatida hokimiyatga kelishi xalqaro munosabatlar tizimida ayollarning o'rni tobora ortib borayotganining muhim misollaridan biri hisoblanadi. Bu holat ayollarning nafaqat ichki siyosatda, balki diplomatiya, xavfsizlik va xalqaro muzokaralar kabi strategik sohalarida ham faol ishtirok etishi mumkinligini namoyon etadi [9]. Shu jihatdan, uning hokimiyatga kelishi Osiyo davlatlarida ayollar diplomatiyasining rivojlanayotganini va xalqaro munosabatlar tizimida ayol yetakchilarning ta'siri tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadigan muhim siyosiy voqea sifatida baholanadi.

Bu misollar ayollarning diplomatiyada nafaqat ramziy shaxslar, balki tashqi siyosat qarorlarining haqiqiy me'morlari sifatida ishtirok etishining tobora ortib borayotgan tendensiyasini namoyish etadi. Bunday yetakchilarni xalqaro maydonda qo'llab-quvvatlash gender muvozanatini institutsional mustahkamlashga hissa qo'shadi va ayollarning

yangi avlodlari uchun diplomatik martaba orttirish uchun doimiy turtki yaratadi.

**Muhokama.** Ayollarning xalqaro munoabatlar tizimidagi ishtirokining ahamiyatli jihatlari e'tibor beradigan bo'lsak, zamonaviy tadqiqotchilar diplomatiya sohasida ayollar sonining ortib borishi xalqaro munosabatlar madaniyatining o'zgarishiga hissa qo'shayotganini ta'kidlamodalar. G'arb olimlarining nazariyalariga ko'ra, eng avvalo, "ayollar diplomatiyasi" hamkorlik, barqaror rivojlanish, inson huquqlari, tinchlikni o'rnatish va profilaktik diplomatiyaga urg'u berish bilan tavsiflanishi kerak. Albatta, tarixiy diplomatik strategiyalar bu konsepsiyaga mutlaqo zid bo'lgan ayol siyosatchilarni biladi. Masalan, Margaret Tetcher o'zining qat'iyatli xarakteri bilan mashhur bo'lgan va buni Buyuk Britaniya tomonidan boshlangan Folklend urushida ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda xalqaro siyosatda turli qarash va tajribalarning qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyatiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Diplomatik jamoalar tarkibiga ayollarni jalb qilish muzokaralar samaradorligini oshirish, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash hamda yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayol diplomatlar ko'pincha mahalliy aholi bilan mustahkam ijtimoiy aloqalar o'rnatish, davlatlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni kuchaytirish hamda turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishda yuqori natijalarni namoyon etadi. Ularning kommunikativ yondashuvi va empatiyaga asoslangan diplomatik uslubi turli jamiyat qatlamlari bilan yaqin aloqalarni shakllantirishga yordam beradi [10].

Xususan, amerikalik tadqiqotchi Devid Mayers fikricha, ayollardagi tajovuzkorlik, agressiyaning kamligi, o'zgalarga g'amxo'rlik va o'zgalar tashvishlariga nisbatan befarq bo'lolmaslik, hamdarliklari aynan ularning jamiyatda tutgan foydali mavqelarini belgilashi mumkin. Aynan ayollar, boshqa tadqiqotchilarning fikricha, insonlar bilan bo'ladigan munosabatlarda iliqlik, yaqinlik tarafdorlaridir [11]. Erkak shaxsiga kuchliroq ifodalangan individual-psixologik xususiyatlar – tashabbuskorlik, faollik, mustaqillik, agressivlik, ustunlikka intilish, avantiyurizm, avtoritarlik, yetakchilik-liderlikka intilish, faoliyat, harakat va fikrlashda ratsionallik, o'z "men"ni tasdiqlashga intilishning kuchliligi, egotsentrizm, egoizm, qat'iylik, bir so'zlilik, mardlik, jasurlik kabi sifatlar xos. Erkaklar ko'pincha voqea va hodisalarga analogik fikrlash, aql-idrok asosida obyektiv baho beradilar. Ayol shaxsiga kuchliroq ifodalangan individual-psixologik xususiyatlar – yumshoqlik, konformizm, o'z ko'rinishi, kiyimi, shaxsiga ko'proq e'tibor berishi, emotsionallik, hissiy ta'sirchanlik, ko'p hollarda hissiyotning aql-idrok va tafakkurdan ustunligi, did, mehribonlik, mehr va hissiyotning kuchliligi, yig'lashga moyillik, voqea, hodisa va shaxslar faoliyatini ko'proq hissiyot, emotsiya asosida talqin etish, baholash, erkaklarga nisbatan kuchliroq ifodalangan altruizm, verbal intellektning yuqoriligi, kirishimlilik, bolajonlik, o'zgalarni tanqid qilishga moyillik, stressga bardoshlilik, bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq faoliyatni olib borish qobiliyati, sevgi-muhabbat hislarining erkaklarga nisbatan uzoqroq davom etishi, o'z ota-onalari hamda farzandlariga bo'lgan mehrning kuchliligi (erkaklarga nisbatan ustunligi) ayollar shaxsida yorqin ifodalanadi [12]. Bu kabi psixologik jihatdan ikkala jinsga xos bo'lgan xususiyatlar siyosiy faoliyatda ham o'z aksini topadi.

Ayollarning xalqaro xavfsizlik jarayonlari va yuqori darajadagi tinchlik muzokaralariga jalb etilishi, shuningdek ularni muhim diplomatik lavozimlarga tayinlash, faqatgina teng vakillikni anglatmaydi. Aslida, ayollarning tinchlik va

xavfsizlik jarayonlaridagi ishtiroki tinchlik bitimlarining muvaffaqiyati va barqarorligiga, shuningdek, tinchlikning davomiyligi va sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlovchi ilmiy tadqiqotlar tobora ortib bormoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, ayol delegatlar tomonidan imzolangan tinchlik shartnomalari ko'proq darajada amalga oshirilgan. Bunga misol sifatida, 1998-yilgacha Shimoliy Irlandiyadagi mojaroni hal qilish jarayonini keltirish mumkin. Shuningdek, ayollar o'zlarining jamiyatdagi rollari va vazifalari tufayli muhim axborotlarga kirish imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, Afg'oniston va Shimoliy Irlandiyada ayollar jamiyat a'zolari bilan muloqot qilish orqali axborot tarmoqlariga kirish imkoniga ega bo'lganlar [13]. Bundan tashqari, Myanmada uzoq davom etgan etnik nizolar fonida ayollar ko'proq jamiyat ichida tinchlikni saqlashga xizmat qilganligi yana bir misoldir. Ularning faoliyati shuni ko'rsatadiki, tinchlik faqat urushni to'xtatish emas, balki adolatni talab qilish jarayonidir. Gruziyada esa ayollar tinchlikni tiklashda ko'proq institutsional rol o'ynagan [14]. Ushbu va boshqa ma'lumotlar gender xilma-xilligi va ayollarning tinchlik muzokaralaridagi ishtiroki uzoq muddatli va sifatli natijalar berishini aniq ko'rsatadi. Ayollar ko'pincha tinchlik o'rnatishda hamkorlikka asoslangan yondashuvni qo'llaydilar va etnik hamda diniy chegaralar orqali muvofiqlashtirishni amalga oshiradilar.

Biroq erishilgan yutuqlarga qaramay, diplomatiyada ayollarning to'liq va teng ishtirok etishiga hali ham bir qator muammolar to'sqinlik qilmoqda. Xususan, ayollarning diplomatik tizimdagi vakilligi dunyo bo'ylab bir xil darajada emas. Ayrim mintaqalarda sezilarli rivojlanish kuzatilayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda ayollar vakilligi hali ham past darajada qolmoqda. G'arb va Skandinaviya mamlakatlari tenglikka intilayotgan bir paytda, bir qator Osiyo, Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarida ayollarning diplomatiyada ishtiroki shunchaki rasmiy yoki ramziy bo'lib qolmoqda. Gender stereotiplari, ba'zi ish sohalarda hali ham qo'llanilayotgan bo'lsa-da, aslida eskirgan va yopiq fikrlashga asoslangan, o'tgan davrlarga xos bo'lgan tushunchalardir va zamonaviy taraqqiyot hamda modernizatsiya bilan mos kelmaydi. Yevropa Ittifoqi ayollarning ahvoli va ularning erkaklarga nisbatan sezilarli noqulayliklarga duch kelayotganidan chuqur xavotir bildirgan bo'lib, bu holat patriarxal stereotiplar va kuch muvozanatidagi nomutanosibliklarga asoslangan diskriminatsion amaliyotlar va qonunlar natijasidir. Buning aksiga, ayollar ko'pincha an'anaviy stereotiplar orqali tasvirlanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ayollar "ishonchsiz" va "to'g'ri sifatlardan mahrum" bo'lgani uchun rahbarlik lavozimlarini egallashga qodir emas deb qaraladi [15]. Bu misollar ayollarning professional faoliyatidagi to'siqlar real va chuqur ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayrim muammolar bo'lishiga qaramasdan xalqaro munosabatlar tizimida ayollarning faol ishtiroki ortib borar ekan, ular jahon siyosatida amalga oshirayotgan ishlari bilan o'z o'rinlari va rollarini mustahkamlashga muvaffaq bo'lishmoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida tinchlik masalasi ayol diplomatlar ishtirokidagi muzokalar bilan chambarchas bo'g'liqlik kasb etmoqda. Gender diplomatiyasini rivojlantirish ko'lemi turli hududlarda turli darajalarda amalga oshirilayotgan, jumladan Sharqdagi musulmon mamlakatlar hali bu tendensiyada past ko'rsatkichlarda bo'lsa ham, kelajakda bu hodisa globallashtirilgan jarayonga aylanishi mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Karen E.S., Marta K. Strengthening the Representation of Women in Diplomacy: Lessons from the Field. LSE IDEAS Research Report. March, 2026. – P.2.
2. Sara Ch. Women in Diplomacy Index. Anwar Gargash Diplomatic Academy. 2025. – P.4.
3. Женщины в дипломатии. Москва: Институт развития социально-экономических проектов и инициатив. 2025. <https://irsepi.ru/zhenshchiny-v-diplomatii/>
4. Women Leaders in International Relations and World Peace. Liechtenstein Institute on Self-Determination. 2011. – P.9.
5. Tran T.H. The Changing Role of Women in Diplomacy in the 21st Century – The Case of South Korea. IRIA Report No. 5. December, 2014. – pp.10-11.
6. Mirzabekova R. Diplomatiyada ayollarning o'rni va roli: imkoniyatlar, yutuqlar va rivojlanish istiqbollari. Scientific and Practical conference “The future starts with us: towards thinking, technology and sustainable development” Volume 1. issue 1. 2025. – B.97.
7. Bhutto, B. Daughter of the East: An Autobiography. – London: Simon & Schuster. 2008. – P.248.
8. Simla Agreement. New Delhi: Ministry of External Affairs, Government of India. 1972. Retrieved from <https://www.mea.gov.in/bilateral-documents.htm?dtl/5541/Simla+Agreement>
9. Japan's Parliament Elects Nation's First Female Prime Minister. (2025) Tokyo: The Japan Times. Retrieved from <https://www.japantimes.co.jp/news/2025/10/21/japan/politics/sanae-takaichi-elected-japan-prime-minister/>
10. Women of the World: The Rise of the Female Diplomat. London: Bloomsbury Publishing. 2014. – pp.4-5.
11. Каримова В.М. Гендер социализация ва гендер тенглик муаммоларини тадқиқ этишнинг методологик асослари. “Advancing The Culture Of Gender Equality: Family values, education policy, and the transformation of social consciousness” (E)ISSN: 2181-17846 (20). Feb.11, 2026. – B.4-5.
12. Shoumarov G'.B. O'zbekistonda gender tenglik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari. “Advancing The Culture Of Gender Equality: Family values, education policy, and the transformation of social consciousness” (E)ISSN: 2181-17846 (20). Feb.11, 2026. – B.8-9.
13. Karimova F. The importance of women's role in diplomatic relations. World Bulletin of Social Sciences WBSS Vol. 27, October 2023. – P.43.
14. Magda L.C. Women-to-women diplomacy: The pursuit of feminist peace in Georgia and Myanmar. Department of Political Science. Dissertation for PhD, 2022. – P.9.
15. Amanda S. Where are all the Women in Diplomacy? A Study on the European Union Panorama. Venice: Università Ca' Foscari Venezia. Final Thesis, 2023. – pp.57-58.